

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# **Yashil** IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

*Elektron nashr. 796 sahifa.*

*E'lom qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.*

**Muharrir:**

**Qurbanov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

**Xudoqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

**Abduraxanova Guinora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TMI professori

**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori

**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d. TDIU professori

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Musyeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori

**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Uteyev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



# MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqqa investitsiya jozibadorligini oshirish .....	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmuddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizmda tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli .....	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati .....	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezoni.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakillantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvida xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari .....	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili .....	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Zarubежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati .....	121
<b>Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li</b>	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar.....	125
<b>Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi</b>	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari .....	131
<b>Akobirova Nodira Najmiddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari.....	135
<b>Axmedova Nafisa Amirkuddin qizi</b>	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry.....	140
<b>Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna</b>	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish.....	144
<b>Bobomuratov Imomqul Islamovich</b>	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili.....	149
<b>Talipova Dilfuza Nabiyevna</b>	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	154
<b>Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li</b>	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue .....	158
<b>Meyliev O. R., Gofurova K.</b>	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	166
<b>Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li</b>	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan.....	170
<b>Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna</b>	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti .....	174
<b>Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi</b>	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	178
<b>Kamilova Iroda Xusniddinovna</b>	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish .....	183
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi.....	188
<b>Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari .....	194
<b>Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna</b>	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish.....	200
<b>Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li</b>	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar .....	214
<b>Musaeva Ziyoda Allayarovna</b>	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari .....	218
<b>Musyeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich</b>	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari.....	223
<b>Akramova Nargiza Axrорovna</b>	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari.....	227
<b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari .....	231
<b>Nazarova Latofat Toirjon qizi</b>	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	235
<b>Nurmuxammedov Matlab Yunusovich</b>	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Баҳриддин угли	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish .....	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari .....	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'lilda boshqaruvin strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari .....	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili .....	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions .....	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimlilikni baholashni xalqaro stanadartlar asosida takomillashtirish.....	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibrildi bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish .....	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан .....	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari .....	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida .....	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi .....	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rino	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar .....	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditni natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi .....	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari .....	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbanov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	373
Mamatov Mamajan Axmadijonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari .....	386
Musyeva Shoira Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением .....	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана .....	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellektual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari.....	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati .....	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане .....	437
Аскаров Бахтиер Аскарович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyeva	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari .....	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Aadaptivnyi iisкусstvennyi intellekt v upravlenii chelovecheskimi resursami.....	469
Хайдарова Малика Шоқирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljalangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida.....	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariiga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari ....	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari .....	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlari .....	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	504
Avazov Ilhom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish.....	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	513
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarни moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari.....	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability .....	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.....	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatçiligin samarali tashkil etish yo'llari .....	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari.....	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari.....	550
Umarova Hulkar Umidulloevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi .....	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari.....	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari .....	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari .....	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
"Зелёная экономика" как фактор повышения экономического роста страны.....	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi.....	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari.....	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari .....	598
Alimbayeva Sevara Alimbayeva	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ułomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatoev Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari .....	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish .....	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlanirish yo'llari .....	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Zagryaznenie okruжающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения .....	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish .....	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan .....	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari .....	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlanirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari .....	670
Turdiev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari .....	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi .....	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi .....	686
Urumbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari .....	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar .....	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsubbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasreddinov	



Xalqaro migrantsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
<i>Tilabova Kumush Farhod qizi</i>	
ANALIZ I OZENKA EESTSTVENNOGO OSVEЩENIJA POMEЩENIIJ OBRAZOVATEL'NYX UCHREЖDENIJ.....	714
<i>Pirmuhamedova Shaxniza</i>	
Aktyualnye voprosy ukrpleniya doveriya naselenija k bankovskoj sisteme Respubliki Uzbekistan.....	719
<i>Ruziboeva Nilufar Tulkin kizi</i>	
Metodicheskie podkhody k formirovaniyu mechanizmov strategicheskogo upravleniya razvitiem khimicheskoy otрасli.....	725
<i>Bibutova Shaхlo Sa'ydullaeva</i>	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning afzalliklari va muammolari .....	730
<i>Axmedova Dilbar Buronovna</i>	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'lijni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
<i>Ishmanova Diana Nurmamadovna</i>	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari .....	737
<i>Muxtorova Madina Azamat qizi</i>	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar .....	741
<i>A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi</i>	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari .....	746
<i>Yodgorova Xalima To'lqinovna</i>	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
<i>Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna</i>	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
<i>Djumabayeva Shaira Xalillayevna</i>	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
<i>Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna</i>	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni .....	778
<i>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</i>	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida) .....	784
<i>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li</i>	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri .....	790
<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi</i>	



# MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Choriyeva Nigina Kaxramonovna**

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy davlatlar qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlari, ularning tajribalaridan mamlakatimizda foydalanish ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar va tahillilar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kooperatsiya, marketing kooperativlari, xizmat ko'rsatish kooperativlari, ta'minot kooperativlari.

**Abstract:** This article presents information and analytical data on cooperative relations in agriculture of foreign countries, on the importance of using their experience in our country.

**Key words:** cooperation, marketing cooperatives, service cooperatives, supply cooperatives.

**Аннотация:** В данной статье представлены информационно-аналитические данные о кооперационных отношениях в сельском хозяйстве зарубежных стран, о важности использования их опыта в нашей стране.

**Ключевые слова:** кооперация, сбытовые кооперативы, сервисные кооперативы, снабженческие кооперативы.

## KIRISH

Jahoning rivojlangan davlatlarida qariyb ikki yarim asrdan buyon agrosanoat majmuasi korxonalari zamonaviy kooperatsiya munosabatlari asosida barqaror faoliyat yuritib, sifatli mahsulot ishlab chiqarish sur'atini ko'paytirish, yuzaga keluvchi moliyaviy, huquqiy, ekologik, ijtimoiy muammolar hamkorlikda muvaffaqiyatli hal etilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saq-lash, tayyorlash, qayta ishslash, sotish, xizmat ko'rsatish, ish bajarish va ta'minot tizimida faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi korxonalar tubdan modernizatsiya qilinmoqda. Ammo "...qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishslash va sotish sohasidagi ilg'or tajriba tahlili ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasini rivojlantirishni samarali rag'batlantirish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda". Ushbu strategik jihatdan istiqbolli va yirik salohiyatli tadbirlarni samarali amalga oshirish agrosanoat majmuasida zamonaviy kooperatsiya munosabatlari asoslangan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy hamkorlik aloqalari shakllanishini talab qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Kooperatsiya munosabatlarining asosiy vazifasi – a'zo xo'jalik subyektlarini faoliyati davomida huquqiy himoya qilish, moliyaviy to'lovsizlikni oldini olish va bankrot bo'lishidan saqlash, ichki va tashqi bozordagi raqobatli kurashda barqaror faoliyat ko'rsatish uchun teng manfaatli sharoitlarni yaratib berish hisoblanadi.

Jahon kooperativ amaliyotida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasiga doir eng ahamiyatli ishlar M.I.Tugan-Baranovskiy<sup>2</sup> nomi bilan bog'liq bo'lib, bu olim agrosanoat majmuasi sohalarida kooperatsiya va integratsiya munosabatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-ishlab chiqarish jihatini bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilgan. M.I.Tugan-Baranovskiy tadqiqot ishlarining natijalari asosida qo'yidagi fikrlarni ilgari suradi:

- qishloq xo'jaligi kooperativi barcha toifadagi mutaxassis-mehnatkashlarning manfaatlarini himoya qiladi va ta'minlaydi;

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydag'i PQ-4239-sonli "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: //lex.uz/docs/4242012

2 Н.В.Ермалинская, Е.А.Кожевников. Кооперация в агропромышленном комплексе: Учебное пособие. Гомель-2016.191 стр.



- kooperatsiya munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligi mehnatkashlarida zamonaviy, yuqori daromad olishga intilishni ta'minlaydigan mehnat faoliyati yuzaga keladi. Bunda dehqonlar xususiy – shaxsiy mehnatiga (salohiyati) suyangan holda, qolgan barcha tadbirlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish, sotish, tayyorlash, qayta ishlash, xizmat ko'rsatish, ta'minot, ish bajarish, kredit olish va bosh-qalar) kooperatsiya munosabatlaridagi boshqa a'zolar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozordagi iste'molchilargacha yetkazib berish bosqichlarida ishlab chiqaruvchi doimo turli yo'naliishdagi infratuzilma subyektlarining xizmatlariga ehtiyoj yuzaga keladi. Bu sharoitda ishlab chiqaruvchilar infratuzilma subyektlari bilan mahsulotlarini sotish – tovar almashtirish bo'yicha munosabatlarini o'rnatishlari lozim.

Demak, M.I.Tugan-Baranovskiy ta'kidlaganidek, qishloq xo'jaligida kooperatsiya unga a'zo bo'lgan xo'jalik subyektlarining texnikaviy salohiyati va iqtisodiy mustahkamligini oshirishni ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi kooperatsiyasi nazariyasi va amaliyotida Aleksandr Vasilevich Chayanov (1888–1937-yy.) alohida o'rinni egallaydi<sup>3</sup>.

Agrar iqtisodchi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi subyektlariga xom ashyo mahsulotini yetishtirishdan boshlab undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha sarflangan barcha xarajatlarning 70-80 foizi va aksincha, ushbu mahsulotni sotilishidan olinadigan yakuniy daromadning 20-30 foizi to'g'ri kelmoqda<sup>4</sup>. Shuningdek, "sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish ... Turkiyada 1 hektar yerdan 2 ming dollarlik, Misrda 8 ming dollarlik, Isroilda 12 ming dollar, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 300 dollardan oshmayotganligi, doim bir xil standartdagi tovar yetkazib berish yo'lga qo'yilmagani sababli mahsulotlar tashqi bozorda raqobatlasha olmaydi<sup>5</sup>.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari o'rganildi. Tadqiqot ishida abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot va boshqa usullardan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jalik kooperativlari – iqtisodiy mustaqil va moliyaviy mustahkam bo'lgan fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish orqali ularni barqaror o'sishini va rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Shvetsiya, Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Niderlandiya va Yaponiya davlatlarida kooperatsiya harakati qishloq aholisini yuz foiz qamrab olgan bo'lsa, Fransiya va Germaniya davlatlarida kooperativ harakat qishloq xo'jaligi korxonalarining 80 foizini o'zida birlashtiradi.

AQSH va Kanada davlatlarida 30-40 foiz fermer xo'jaliklarini o'zida birlashtirgan kooperativ korxonalar yirik agrofirmalar uchun jiddiy raqobatchi korxonalar hisoblanadilar. Yaponiya davlatida ham kooperativ korxonalarda fermer xo'jaliklari yirik salmoqni tashkil etadilar va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonidagi barcha muammolarni ijobjiy va qisqa muddatda hal etishda asosiy o'rinni egallaydilar. Fermer xo'jaliklari kooperativlarda tayyorlangan mahsulotlarning salmog'i mamlakat darajasida mahsulotlar tarkibida yuqori o'rinni egallaydi. Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida kooperativ korxonalar o'z tarkibidagi sohalar bo'yicha fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan. Bu jarayonda kooperatsiya faoliyatining eng muhim yunalishi – fermer xo'jaliklarini resurstejamkor, zamonaviy ishlab chiqarish jihatlari bilan ta'minlash hisoblanadi. Tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilariga yetkazib berilayotgan ishlab chiqarish vositalarining taxminan 50 foizi Yevropa xarid-ta'minot kooperativlari hissasiga to'g'ri keladi. Ta'minotchi kooperativlar faoliyatining asosini mineral o'g'itlar va ozuqalar yetkazib berish tashkil qiladi. Bu toifadagi kooperativlarning hissasi AKSH, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Shvetsiya, Daniya va Norvegiyada 50-65 %ni tashkil etadi.

Ayrim mamlakatlarda urug'lik yetkazib beruvchi kooperativlarning o'rni yuqori bo'ladi. Masalan, urug'lik materialini yetkazib berish Daniyada 35%, Irlandiyada 55%, AKSHda 15%, Fransiyada 73%ni tashkil etmoqda.

So'nggi yillarda samarali marketing, savdo hajmini kengaytirish, sut mahsulotlarini qayta ishlash maqsadida kichik va o'rta kooperativ tashkilotlarini birlashtirish jarayoni yanada rivojlantirilmoqda. AQSHda kooperativ tarmoqlarida amalga oshirilayotgan konsentratsiya jarayoni fermer xo'jaliklarni birlashtirishni raqobat tah-

<sup>3</sup> H.B.Ермалинская, Е.А.Кожевников. Кооперация в агропромышленном комплексе: Учебное пособие. Гомель-2016.191 стр.

<sup>4</sup> R.H.Husanov. Qishloq xo'jaligida kooperatsiyalashning ilmiy-amaliy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. O'zBIITI, ilmiy-amaliy konfrensiya ma'ruzalar to'plami, 14-15 noyabr 2008 yil, – 10 b.

<sup>5</sup> Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. <https://daryo.uz/k/2019/09/06/shavkat-mirziyoyev-qishloq-xo'jaligini-rivojlantirishning-ustuvor-yonalishlariga-bagishlangan-yigilish-otkazdi/>




didi sifatida qabul qilmaydigan antimonopol qonunlar qabul qilingan. Natijada mamlakatning katta qismida sut mahsulotlari bozorini nazorat qiluvchi va o'lab qayta ishlash zavodlariga egalik qiluvchi yirik, keng tarmoqli mashtabli kooperativ tuzilmalar (masalan, Dairy Farmers of America, California Dairies, Inc, Land O'Lakes Ins va boshqalar) faoliyat ko'rsatmoqda. So'nggi 2 yilda 8 ta yirik kooperativ tashkilotda mamlakatning barcha kooperativlari tomonidan sotilgan sut hajmining 60 %dan yuqori va AQSH sut mahsuloti umumiy hajmining 50 %dan ko'p qismi ishlab chiqilmoqda.


Kooperativ korxonalarining faoliyatini asosiy maqsadiga ko'ra 4 turga bo'lib ko'rsatish mumkin:

- marketing kooperativlari - asosan o'z a'zolarining mahsulotlarini sotishga yo'naltirilgan;
- ta'minot kooperativlari – qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish uchun xomashyo, uskunalar va boshqa moddiy resurslar savdosiga ixtisoslashgan;
- xizmat ko'rsatish kooperativlari - o'z a'zolariga va boshqa buyurtmachilarning talablari bo'yicha xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan (masalan, ekin maydonini shudgor qilish, hosilni yig'ib olish, mahsulotni saqlash va boshqalar);
- faoliyati jarayonida bir qancha yo'nalishlarni birlashtiruvchi aralash kooperativlar.

Ko'plab kooperativlar savdo va ta'minot yo'nalishidagi vazifalarni bir xilda bajaradilar, xususiy qayta ishlash sexlariga ega va sutni qayta ishlash hamda keng assortimentdagi tayyor mahsulotlarni oxirgi iste'molchilarga sotishni amalga oshiradilar. AQSHdagi sut mahsulotlari sotish, ishlab chiqarish, qayti ishlash, quruq sut ishlab chiqarish bo'yicha kooperativlarning tuzilmasi (1-rasm) va sotish salmog'i (2-rasm) keltirib o'tilgan.



1-rasm: AQSHdagi sut mahsulotlari bo'yicha kooperativlarning tuzilmasi (foiz hisobida)<sup>6</sup>



2-rasm: AQSHda kooperativlar tomonidan sut mahsulotlarini sotish salmog'i (foiz hisobida)<sup>7</sup>

6 Kraenzle C.A., Eversull E.E. Co-ops increase share of farm marketing; share of farm supply sales dips slightly // Rural Cooperatives, may-june 2003.

7 Kraenzle C.A., Eversull E.E. Co-ops increase share of farm marketing; share of farm supply sales dips slightly // Rural Cooperatives, may-june 2003. -



Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, kooperativ va integratsiya munosabatlari xo'jalik subyektlarining faoliyat doirasida ikki yo'nalish tashkil etilishi mumkin. Birinchi yo'nalishdagi kooperativ korxona - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'nalishini o'z ichiga oladi. Mazkur korxonalarda kooperativ obyektlar sifatida o'z a'zolarining mehnati va mulki, jumladan, asosiy va aylanma vositalar majmuasi hisoblanadi. Fermer va dehqon xo'jaliklarini ushbu kooperativlarga a'zo bo'lishi eng avaolo ishlab chiqarish infratuzilma subyektlarida mavjud bo'lgan resurslar ta'minoti, uning holati va boshqa omillariga bog'liq. Ayrim moddiy-texnika vositalarida uchraydigan kamchiliklar boshqa vositalarning ortiqcha yoki kam bo'lishi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi subyektlar holatini tenglashtirish va resurslar salohiyatidan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrar iqtisodchi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, qishloq xo'jaligi subyektlariga xom ashyo mahsulotini yetishtirishdan boshlab undan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha sarflangan barcha xarajatlarning 70-80 foizi va aksincha, ushbu mahsulotni sotilishidan olinadigan yakuniy daromadning 20-30 foizi to'g'ri kelmoqda<sup>8</sup>. Bu nomutanosiblik holati ijobji tomonga o'zgartirilishi uchun ham qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq. Aks holda, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi xomashyo yetishtiradigan soha sifatida saqlanib qolishi va unig iqtisodiy holati jahon bozoridagi xomashyo narxlariga bog'liq bo'lib qolish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Jahon qishloq xo'jaligi tarixiga ko'ra, butun bir majmuada, ya'ni "mahsulot ishlab chiqarish-moliyalashtirish-xizmat ko'sratish-ta'minot – saqlash – tayyorlash – qayta ishlash – sotish - eksport qilish - innovatsion texnologiya va ilg'or ishlanmallarni ishlab chiqarishga joriy qilish" kabi o'zaro bir-biriga bog'liq tuzilmalarda muayyan muammolar yuzaga kelgan davrlarda barcha yo'nalishdagi xo'jalik subyektlari ixtiyoriylik va ko'ngililik asosida o'zaro hamkorlik munosabatlari, kooperatsiya asosida faoliyatlarini samarali yo'liga qo'yish orqali barcha muammolarni bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli hal qilishga erishganlar.

Qishloq xo'jaliklari subyektlarining faoliyatida kooperatsiya munosabatlarni tarixan tashkil etilish jarayoni va rivojlanishini yuqori samaradorligini tajribalar tasdiqlamoqda. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanayotgan davrda qishloq xo'jaligiga kooperatsiya munosabatlarining o'rni va ahamiyati yil sayin oshib boradi.

Tadqiqot natijalari asosida, qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuasi sohalarining korxona hamda tashkilotlari (infratuzilma subyektlari) funksiyaviy faoliyatida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni kooperatsiyaviy hamkorlik munosabatlari asosida rivojlantirishning tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqildi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4239-soni "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: //lex.uz/docs/4242012.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fermer, dexxon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni (2021-yil 9-oktyabrdagi PF-5199-son).
3. Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. https://daryo.uz/k/2019/09/06/shavkat-mirziyoyev-qishloq-xojaligini-rivojlantirishning-ustuvor-yonalishlariga-bagishlangan-yigilish-otkazdi.
4. H.B.Ермалинская, Е.А.Кожевников. Кооперация в агропромышленном комплексе: Учебное пособие. Гомельь 2016.191 стр.
5. R.H.Husanov. Qishloq xo'jaligida kooperatsiyalashning ilmiy-amaliy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. O'zBIITI, ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalar to'plami, 14-15 noyabr 2008 yil, – 10 b.
6. Kraenzle C.A., Eversull E.E. Co-ops increase share of farm marketing; share of farm supply sales dips slightly // Rural Cooperatives, may-june 2003.

<sup>8</sup> R.H.Husanov. Qishloq xo'jaligida kooperatsiyalashning ilmiy-amaliy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. O'zBIITI, ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalar to'plami, 14-15 noyabr 2008 yil, – 10 b.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

